



SAUDIYA ARABISTONI BILAN YAQIN HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH VA ZIYORATCHILARIMIZGA QULAY SHAROITLAR YARATISHGA E'TIBOR QARATILADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 19-fevral kuni mamlakatimizda tashrif bilan bo'lib turgan Saudiya Arabistoni Podshohligi haj va umra ishlari vaziri Tavfiq bin Favzon ar-Rabia boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Saudiya Arabistoni Podshohi Salmon Ol Saud va Valiahd, mamlakat Bosh vaziri Muhammad Ol Saudning salomi va samimiy tilaklarini yetkazdi. Vazir, shuningdek, Podshohning ko'p millatli O'zbekiston xalqiga hadyasi — muqaddas Ka'ba yopinchi'g' kisvaning bir parchasini topshirdi.

O'zbekiston yetakchisi, o'z navbatida, Saudiya Arabistoni rahbariyatiga bebaho tuhfa hamda ziyoratchilarimizning musulmon dunyosi markazlari — Makka va Madinada bo'lishi uchun yaratilgan imkoniyatlar va qulay sharoitlar uchun chuqur minnatdorlik bildirdi. Birgina o'tgan yilning o'zida 800 mingdan ziyod fuqarolarimiz Umra ziyoratini, 15 ming nafari Haj ibodatini ado etdi.

Suhbat chog'ida o'zbekistonlik ziyoratchilarga shart-sharoitlar va ko'rsatayotgan xizmatlar sifatini yanada yaxshilash, ularning Saudiya Arabistoniga tashrifi xavfsiz va qulay bo'lishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

O'zA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI IKKINCHI JAHON URUSHI QATNASHCHILARINI RAG'BATLANTIRISH TO'G'IRISIDA

Mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro'-e'tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo'shayotgan faxriylarni e'zozlash hamda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini, ularga tenglashtirilgan shaxslarni hamda 1941-1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilarini moddiy rag'batlantirish maqsadida:

1. Bir martalik pul mukofoti belgilsin: Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 (o'n ming) AQSH dollari miqdorida; Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslarning har biriga 25 000 000 (yigirma besh million) so'm miqdorida;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2025-yil 19-fevral

ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA TEJAMKORLIK ZARUR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 19-fevral kuni energiya samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Bu haqda 28-yanvarda elektr energetikasini rivojlantirish bo'yicha o'tgan yig'ilishda topshiriq berilgan edi.

Mamlakatimizda energiya quvvatlari aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining o'suvchan talabiga mos ravishda oshirib borilmoqda. Xususan, o'tgan yili 50 milliard kub metr tabiiy gaz, 81 milliard kilovatt-soat elektr ishlab chiqarildi.

2035-yilga borib, elektr iste'moli hozirgidan 1,7 barobar oshishi hisob-kitob qilingan. Bu talabni to'liq qondirish uchun faqat ishlab chiqarish emas, tejamkorlik ham zarur.

Tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda 1 dollarlik yalpi ichki mahsulot yaratish uchun dunyodagi o'rtacha ko'rsatkichdan 2,5 barobar ko'p energiya sarflanyapti. Elektr tarmoqlaridagi yo'qotishlar 14 foiz, tabiiy gazda esa 7 foizdan yuqori.

Shu bois, olimlar jalb qilinib, joylarda energiyani tejash imkoniyatlari ilmiy asosda o'rganilmoqda. Hozirgacha 7 ta viloyatda 4,6 milliard kilovatt-soat elektr va 1 milliard kub metr gazni iqtisod qilish imkoniyatlari aniqlangan.

Taqdimotda shu kabi o'rganishlar asosida ishlab chiqilgan takliflar muhokama qilindi.

Misol uchun, suv xo'jaligidagi eski nasoslarni zamonaviyisiga almashirib, yiliga 1 milliard kilovatt-soat elektrni tejash mumkin.

Ijtimoiy muassasalarda qozonxonalarini yangilash, "yashil" energiyadan foydalanish orqali bu yil 5 million kub metr gaz, 15 million kilovatt-soat elektrni iqtisod qilsa bo'ladi.

Umuman, bu yil 1,6 milliard kub metr gaz va 3,5 milliard kilovatt-soat elektrni tejash mo'ljallangan. Buning uchun har bir korxonaga va tashkilotga ilmiy asoslangan chora-tadbirlar yetkaziladi.

Jumladan, yirik sanoat korxonalarida bir mahsulot birligi ishlab chiqarishga ketadigan energiya me'yori belgilanadi. Shuning o'zidan energiya sarfi 5-10 foiz qisqaradi. Ijtimoiy obyektlarda energiya tejamkor uskunalarini o'rnatish bo'yicha manzilli dastur tasdiqlanadi.

Ko'p qavatli uylarda issiqlikni yaxshi saqlash uchun ularni izolatsiyalash kengaytiriladi. Xonadonlarda geliokollektor va quyosh paneli o'rnatishga arzon kreditlar beriladi. Iste'molchilar Yaponiya tajribasi asosida energiya tejash savodxonligi bo'yicha o'qitiladi.

Davlatimiz rahbari iqtisodiyotning barcha tarmoqlari, ijtimoiy soha va uy-joylarda tejamkorlik muhimligini ta'kidladi. Hudud va tarmoqlar kesimida energiya isrofini kamaytirish, talon-tarajliklarning oldini olish bo'yicha qat'iy ko'rsatmalar berildi.

O'zA

O'ZBEKISTON — KUVAYT: IQTISODIY SOHADA 4,9 MILLIARD DOLLARLIK SALMOQLI KELISHUVGA ERISHILDI



Davlatimiz rahbari shu yil 17-18-fevral kunlari Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Sabohning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'ldi.

Davomi 2-beta

Taraqqiyot yo'li



BANDLIKNI TA'MINLASH VA KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH Joriy yil bu borada hal qiluvchi davr bo'ladi

Bandlik biror yumush bilan band ekanlik, bo'sh emaslikni anglatadi. Mazmun-mohiyatiga ko'ra esa bu so'zning qamrovi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati ancha keng. Bu kenglik shu qadarki, u hayotimiz mazmuni — o'lichovli umrimiz maybonda o'zimizdan biror iz qoldirish, orzu-havaslarimizga yetishimizda muhim vosita vazifasini o'taydi.

Shu bois, mamlakatimizda aholining muqim va daromadli ish bilan bandligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'nalishda yo'lga qo'yilgan turli dastur va loyihalar joylarda yangi

ish o'rinlari yaratish bilan birga iqtisodiyotimiz barqarorligi, asosiy, aholi farovonligiga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.

Davomi 3-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

IKKINCHI JAHON URUSHIDA QOZONILGAN G'ALABANING 80 YILLIGI HAMDA XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA MUNOSIB NISHONLASH TO'G'IRISIDA

Mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan ravnaqi, taraqqiyoti va uning himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, shuningdek, mustaqillik yillarida xizmat

burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash yurtimizda oliyjanob qadriyatga aylangan.

Xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi yuksak mardlik va qahramonliklari barcha avlodlar uchun namuna va ibrat maktabi

vazifasini bajarib kelmoqda. Xususan, Ikkinchi jahon urushiga o'zbekistonliklarning 2 millionga yaqini safarbar etilib, shundan 538 ming nafardan ortig'i jang maydonlarida qahramonlarcha halok bo'lgan, 158 ming nafardan ortig'i bedarak yo'qolgan, mustaqillik yillarida 200 nafarga yaqin harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi

organlar xodimlari mamlakatimizning tinchligi va osoyishtaligi yo'lida o'z jonini fido qilganlar.

Biz tinchlik va mustaqillik uchun o'z jonini ayamagan ota-bobolarimiz va mard o'g'lonlarimizning ulkan jasorati, matonati hamda fidoyiliklarini yuragimizda abadiy saqlaymiz.

Davomi 2-beta

Baland, qadimiy minoralari bilan insoniyatni mahliyo qilib kelgan Samarqandning takrorlanmas so'lim tabiiy ham azaldan e'tirof etib kelinadi. Xususan, Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asarida Samarqandni bunday tasvirlaydi: "Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdir". "Uzumi va qovuni va olmasi va anori, balki jami' mevasi xo'b bo'lur".

400 GEKTARLI UZUMZOR

BULUNG'UR DALALARIDA yetishtirilgan SARXIL MEVALAR XALQIMIZ DASTURXONI va DUNYO BOZORLARINI to'ldiradi



O'sha davrda serhosil bog'lari ko'rkiga ko'rk qo'shib turgan Samarqandning boshqacha ta'rifi ham bo'lmasdi. Samarqandning turli mevalari, ayniqsa, qator xorijiy davlatlarga eksport qilinadigan uzumi, undan tayyorlanadigan mayiy dunyo bozorida o'z xaridorlariga ega. Bugun so'lim go'sha o'zining ziroatchilikdagi obro'sini tiklayotir.

Yaqin o'timishda nafaqat Samarqand, balki

mamlakatimiz qishloq xo'jaligi yerlariga yoppasiga paxta, g'alla ekildi. Hududlarning iqlim sharoiti, tabiiy insoniyat inobatga olinmadi. Sohaga oqilona, e'tibor bilan yondashilmagan tufayli ko'plab sersuv, unumdor yerlar qacragan cho'l, foydalanilmaydigan qir-adirga aylanib qoldi. Oqibatda turli ekologik muammolar yuzaga keldi.

Davomi 4-beta

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining
QARORIIKKINCHI JAHON URUSHIDA QOZONILGAN G'ALABANING
80 YILLIGI HAMDA XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA
TAYYORGARLIK KO'RISH VA MUNOSIB NISHONLASH TO'G'RSIDA

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80-yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga puxta tayyorgarlik ko'rish, uni yuksak darajada o'tkazish, O'zbekiston xalqining tarixiy qahramonligi, fidokorona mehnatini ulug'lash, yosh avlodni ona Vatanga sadoqatli, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylashga qodir insonlar etib tarbiyalash maqsadida:

1. Keng jamoatchilik vakillarining yurtimizda Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 80 yilligi hamda 9-may — Xotira va qadrlash kunini (keyingi o'rinlarda — Xotira va qadrlash kuni) "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi" shiori ostida o'tkazish to'g'risidagi taklifga rozilik berilsin.

2. Quyidagilar:
9-may — Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish dasturi (keyingi o'rinlarda — Dastur) 1-ilovaga muvofiq;

9-may — Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruh (A.Aripov):
Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari, mustaqilligimizni mustahkamlash, xalqimiz tinchligi, mamlakatimiz ravnaqi yo'lida jasorat va fidoyilik ko'rsatgan yurtodoshlarimizni xotirlash, ayni vaqtda hayot bo'lgan mehnat faxriylari va keksalarimizga hurmat-ehtiromlar ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar yuqori saviyada o'tkazilishini tashkil etsin;

ushbu toifadagi shaxslarning yashash joyiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlari, harbiy qismlar komandirlari, davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, yoshlar, shu jumladan, "Vatan tayanchi" bolalar va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolarining tashriflarini, ular ko'rsatgan mardlik va jasoratning ahamiyatini targ'ib qilishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilsin;

yolg'iz va kam ta'minlangan ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining yashash joylarini ta'mirlash, obodonlashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirsin;

Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisi va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar, front orti mehnat faxriylari, mustaqillik yillarida xizmat

burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan yoki nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari hamda ularning oila a'zolariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatilishini ta'minlasin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarga hamda 1941-1945-yillardagi urush davridagi mehnat fronti qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti tantanali ravishda topshirilishini tashkilatsirsin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarga, front orti mehnat faxriylariga "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" yubiley medallarini tantanali ravishda topshirsin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va uning oqibatida nogiron bo'lgan shaxslarning har biriga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularni parvarish qilish maqsadida tibbiyot mutaxassislarini belgilangan tartibda shartnoma asosida birkiritgan holda doimiy ravishda patronaj xizmatini yo'lga qo'ysin;

Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylariga ularning xohishlariga ko'ra respublika hududidagi sanatoriylarga bir nafar kuzatuvchisi bilan bir martalik bepul yo'llanmalar taqdim etilishini ta'minlasin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Madaniyat vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Sport vazirligi va Yoshlar ishlari agentligi bilan birgalikda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyat, shahar va tumanlarda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirsin;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlaridagi "Vatanparvar" bog'lari va boshqa belgilangan joylarda davlat va jamoat arboblari, faxriylar, fan, madaniyat va san'at namoyandalari, yoshlar, "Temurbeklar maktabi" va Jaloliddin Manguberdi nomidagi harbiy-akademik litseylar o'quvchilari, shu jumladan, "Vatan tayanchi" bolalar

va o'smirlar harbiy-vatanparvarlik harakati a'zolari ishtirokida "uch avlod uchrashuvlari"ni tashkil etsin;

ko'chalar va maydonlar Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan ko'rgazmali targ'ibot va tashviqot vositalari bilan bezatilishini ta'minlasin.

5. Belgilansinki, Xotira va qadrlash kuni tadbirlarini o'tkazish hamda turli hududlarda istiqomat qiluvchi ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front orti mehnat faxriylari vakillarini ushbu tadbirlarga jalb qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda — tegishli mahalliy budgetlar hamda homiylik xayriyalari va qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

Toshkent shahrida — Toshkent shahri hokimligi xazira mablag'lari, homiylik xayriyalari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

milliy va zamonaviy sport turlari bo'yicha xotira turmiralari hamda "Men g'olib" yugurish marafonlari — Dasturda belgilangan mas'ul ijrochi vazirlik, idoralar va tashkilotlarning mablag'lari hisobidan qoplanadi.

6. Mudofaa vazirligi Toshkent shahri hokimligi bilan birgalikda "Yangi O'zbekiston" bog'ida 2025-yil 9-may kuni soat 21.00 da Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan bayram salyuti va mushakbozligini tashkil qilsin.

7. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi tantanali tadbirlar o'tkaziladigan hamda bayram salyuti va mushakbozligi tashkil etiladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rsin.

8. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Xavfsizlik kengashi kotibi V.V.Maxmudov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
PrezidentiToshkent shahri,
2025-yil 19-fevral

SH. MIRZIYOYEV

Yangi qonun

200 MILLION SO'MLIK MIQDOR

bankka undan ko'p pul
qo'yish imkonini cheklashni
anglatadimi?

Joriy yil 18-fevralida Prezidentimiz "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonunni imzoladi. Mazkur qonun so'nggi yillarda mamlakatimizda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, bank tizimida biznes yuritish uchun raqobat muhitini, shuningdek, xalqaro standartlarga mos keluvchi huquqiy asosni yaratish bo'yicha tizimli ishlarning mantiqiy davomi bo'ldi. Xususan, 2019-yilda "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi hamda "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunlarning yangi tahrirda qabul qilinishi mamlakatimiz bank tizimini isloh qilishning yangi bosqichi boshlanishi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Bunda banklar faoliyatini nazorat qilishning amaldagi tartibi, jumladan, mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayoni bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish tizimidan xatarlarni boshqarishga asoslangan, ya'ni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tavakkalchiliklarni nazorat qilish tizimiga o'tildi.

Bank-moliya tizimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda keyingi muhim bosqich — omonatlarni kafolatlash tizimini isloh qilish hamda to'lovga layoqatsiz banklarni sanatsiya qilish tizimini yaratish bilan bog'liq. Shundan kelib chiqib, Markaziy bank tomonidan Jahon banki ekspertlari bilan birga xalqaro standartlar asosida "Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan edi. Ushbu loyihani davlatimiz rahbari ma'quulladi. Endi omonatlar borasida qator yangiliklar joriy etilmoqda. Jumladan, qonun bilan kafolatlangan omonat miqdori bitta bankda bir omonatchiga 200 million so'm etib belgilandi. Shu bilan birga, endi aholi omonati bilan birga yakka tartibdagi tadbirkorlar va yuridik shaxslarning ham omonati kafolatlanadi.

Kafolatlangan omonat miqdori 200 million so'mni tashkil etishi bankka undan ko'p pul qo'yish imkonini emasligini anglatmaydi. Omonatni bu miqdorda kafolatlash bank tugatilgan taqdirdagina qo'lanadi.

Aks holda, banklar omonat bo'yicha majburiyatini shartnoma asosida bajaraveradi.

Bundan tashqari, mazkur qonun talablari u kuchga kirgunga qadar aholining bankka qo'yilgan muddatli va jamg'arma omonatlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi. Ya'ni ular shartnoma muddati tugagunga qadar to'liq kafolatlangan bo'ladi.

Bugun faoliyat yuritayotgan Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi negizida Omonatlarni kafolatlash agentligi tashkil etildi. Bank tugatilgan taqdirda kafolatlangan omonat egalari kompensatsiyalar to'lab berish uning asosiy vazifalaridan biridir. Bunda bank tugatilayotganda kafolatlangan omonat bo'yicha kompensatsiyalarni to'lash muddati 20 ish kunidan bosqichma-bosqich 7 ish kunigacha qisqartirildi. Avval ushbu muddat 83 kun edi.

Bank yopilishi natijasida mablag'ning 200 million so'mdan ortiq qismini yo'qotishdan xavotirlangan omonatchilar pulni bo'lib-bo'lib, bir necha bankka joylashtirishi va to'liq kafolatga ega bo'lishi mumkin. Qonunda kompensatsiya to'lab berish manbasi hisoblanadigan banklar tomonidan agentlik tarkibidagi Omonatlarni kafolatlash jamg'armasiga to'lanadigan badallar turi, mazkur jamg'armaning maqsadli miqdori, jamg'arma mablag'i taqchilligi yuzaga kelganda uni hal etish manbalariga ham aniqlik kiritilgan.

Bundan tashqari, Omonatlarni kafolatlash jamg'armasi mablag'lari yetarli darajada bo'lishini ta'minlash maqsadida yuqori likvidli (7 ish kunida pulga aylantirilishi mumkin bo'lgan tavakkalchilik darajasi past) aktivlarga investitsiya qilinishi mumkinligi belgilangan.

Umuman olganda, pulni banklarda saqlash uyda saqlashdan ancha xavfsiz va manfaatli. Chunki mamlakatimiz bank tizimi barqaror rivojlanmoqda, kapital va likvidlik holati xalqaro talablarda belgilanganidan yuqori.

"Banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to'g'risida"gi qonun haqidagi batafsil ma'lumotlarni Markaziy bankning rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari, flit-uz sayti, Omonatlarni kafolatlash agentligi rasmiy veb-sayti kuzatib borish orqali olish mumkin.

Akmal NAZAROV,
Markaziy bank departamenti
direktoriUSHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM
O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!O'ZBEKISTON — KUVAYT: IQTISODIY SOHADA 4,9 MILLIARD
DOLLARLIK SALMOQLI KELISHUVGA ERISHILDI

Boshlanishi 1-betda

Tarixiy ahamiyatga ega tashrif ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tomonlar o'zaro muloqotlar davomida ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik, keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalarini ko'rib chiqdi.

Xususan, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion va moliyaviy-texnik sohalaridagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi. "Yashil" energetika, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, infratuzilma, shaharsozlik, sog'liqni saqlash, turizm sohalarini amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Lutfulla SUVONOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Tashrif davomida qator hujjatlar to'plami imzolandi. Shuningdek, tashrif dasturi doirasida muhim uchrashuvlar o'tkazildi va

hamkorlikning turli yo'nalishlari, jumladan, iqtisodiy sohada 4,9 milliard dollarlik salmoqli kelishuvlarga erishildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi ta'lim va ilmiy-texnikaviy hamkorlik yildan yilga mustahkamlanib, yangi yo'nalishlarda rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda ikki davlat "Aqlli shahar" loyihalarini joriy etish borasida ham faol hamkorlik qilmoqda.

Ayni yo'nalishda imzolangan "Aqlli shahar"larni barpo etish sohasidagi hamkorlik to'g'risidagi bitim muhim ahamiyatga ega, — deydi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori Bahrom To'laganov. — Bu nafaqat ta'lim va fan sohasida, balki innovatsiya va

texnologiyalar yo'nalishida ham yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

O'zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilm-fanning o'rni beqiyos, bu jarayonda "Aqlli shahar" konsepsiyasini amaliyotga tatbiq qilish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik

kabi yo'nalishlar bo'yicha aniq rejalar ishlab chiqilmoqda.

O'zbekiston hududiy rivojlanish sohasida Kuvayt bilan hamkorlikda ilg'or tajribalarga tayangan holda bir qator loyihalar ustida ishlanmoqda. Kuvaytda "Aqlli shahar"lar yaratish bo'yicha bir necha yirik loyiha amalga oshirilgan, ular, asosan, raqamli

O'ZBEKISTON VA KUVAYT O'RTASIDAGI TA'LIM VA
ILMIY-TEKNIKAVIY HAMKORLIK YILDAN YILGA
MUSTAHKAMLANIB, YANGI YO'NALISHLARDA
RIVOJLANIB BORMOQDA. BUGUNGI
KUNDA IKKI DAVLAT "AQLLI SHAHAR" LOYIHALARINI
JORIY ETISH BORASIDA HAM FAOL HAMKORLIK
QILMOQDA.

ishlanmalari orqali hududlarning innovatsion salohiyatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarining hududlar bilan hamkorligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish uchun ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishni nazarda tutadi. Bu esa, o'z navbatida, "Aqlli shahar" loyihalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalar va ma'lumotlar tahlili asosida samarali boshqaruvni tashkil etish imkonini beradi.

Joriy yilda o'tkazilgan tadqiqot va tahlillar natijasida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga qaratilgan yuzlab takliflar ishlab chiqildi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalarga asoslangan "Aqlli mahalla" loyihalarini rivojlantirish, raqamli xizmatlar platformasini yo'lga qo'yish va resurslardan oqilona foydalanish

texnologiyalar va "yashil" infratuzilmani birlashtirishga qaratilgan. "Aqlli shahar"lar ko'pincha energiya samaradorligini oshiruvchi tizimlarga, quyosh panellari va energiya tejovchi qurilmalarga asoslanadi. Shu sababli hozirgi kunda Kuvaytda qayta tiklanuvchi energiya manbalari, ayniqsa, quyosh energiyasidan samarali foydalanish borasida katta ishlar amalga oshirilgan.

Bugungi kunda dunyoda aholi soni keskin oshib bormoqda. Bunday sharoitda urbanizatsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ekologik muhitni yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashda "aqlli" texnologiyalar muhim rol o'ynaydi. "Aqlli shahar"lar bir qancha muammolarni hal qilishga qolmay, ularga yechim ham topadi.

Jumladan, tirbandliklarni kamaytirish, jamoat transporti samaradorligini oshirishda yo'llarni sun'iy intellekt orqali boshqarish katta ahamiyatga ega. Qolaversa, "aqlli" kuzatuv kameralari, tahliliy dasturlar va sun'iy intellekt jinoyatchilikning oldini

olishda muhim. Bundan tashqari, atrof-muhitni nazorat qila oladi. Ya'ni havo sifatini aniqlaydi, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligiga doir yo'nalishlarni rivojlantiradi.

Qishloq xo'jaligi sohasida juda katta hamkorlikni yo'lga qo'yyapmiz, — deydi qishloq xo'jaligi vaziri Ibrohim Abdurahmonov. — Kuvayt biz uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportida yangi bozor. Bu yerda deyarli barcha qishloq xo'jaligi mahsulotlari import qilinadi. Ushbu bozorda o'z o'rnimizni topish uchun qator kelishuvlarga erishdik. Qolaversa, kuvaytlik hamkorlarimizda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash, tarqatish borasida qiziqish yuqori ekanini ko'rdik. Mahsulotlar eksporti birinchi yo'nalish bo'lsa, ikkinchi yo'nalish organik mahsulotlardan bioetanol ishlab chiqarish. Biz bu yerda yangi, zamonaviy texnologiyalar bilan tanishdik. Kuvaytda palma daraxtidan bioetanol olish texnologiyasi yo'lga qo'yilgan. Ularni O'zbekistonga taklif qildik. Chunki bizda mahsulot yetishtirishdan qolgan chiqindilar tashlab yuboriladi. Masalan, birgina paxtadan juda katta miqdorda g'ozapoya qoladi. Ana shu kabi mahsulotlar chiqindisidan ularning texnologiyasi hisobiga bioetanol ishlab chiqarish imkoniyati mavjud.

O'zbekiston zaminini quyoshli bo'lgani uchun mevalarimizning ta'mi, mazasi, sifati boshqa joylarnikidan ancha farq qiladi. Vazirning qo'shimcha qilishicha, tomonlar bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki muhokamalarni o'tkazgan. Kuvaytliklar bunga juda katta qiziqish bildiriyapti. Ayni paytda yurtimizda bu turdagi mahsulotlar, asosan, import hisobidan qoplanmoqda. Agar ushbu yo'nalishdagi muhokamalar samarali yuksalib, ijobiy kelishuvlarga erishilsa, juda katta yutuq bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, nafaqat qishloq xo'jaligi, balki tashrif doirasida ko'plab sohalar bo'yicha erishilgan kelishuvlarga muvofiq, yangi va ilg'or texnologik jarayonlarning O'zbekistonga olib kiritilishi har ikki tomon uchun ham manfaatli bo'ladi hamda istiqbolli hamkorlikka keng yo'l ochadi.

BANDLIKNI TA'MINLASH VA

KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH

Joriy yil bu borada hal qiluvchi davr bo'ladi



Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Buni birgina poytaxtimizning Olmazor tumanidagi Quyosh mahallasida kechayotgan jarayonlar misolida ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, shu mahallada yashovchi Mashhura Umarova yoshligidan tikuvchilikka mehr qo'yib, avval onasi, so'ngra mohir ustozlardan kasb sirlarini o'rgandi. Tikuvchilik korxonalarida ishlab, yaxshigina tajriba ortirdi.

Ammo turmush qurgach, farzandlar tarbiyasi va oila yumushlaridan ortib, biror joyda ishlash imkonini bo'lmadi. Oilaviy sharoitidan kelib chiqib, uyda qo'ni-qo'shnining buyurtmasi asosida kiyim-kechak tikish orqali daromad topib, oilasiga ko'maklashishga harakat qildi. Biroq ish quroli — tikuv mashinasi eskirgach, ishi yurishmay qoldi. Yangi tikuv mashinasi olay desa, mablag' yo'q. Turmush o'rtog'ining haydovchilik qilib topgan daromadi oila ehtiyojidan deyarli ortmaydi.

Shunday vaziyatda xonadonga "mahalla yetiligi" vakillari kirib keladi. Mahalladagi hokim yordamchisi Nargiza Ahmedova oilaning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, individual reja asosida amaliy ko'mak ko'rsatishga kirishadi. Mashhuraning qo'lida hunari borligi hisobga olinib, uning faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashish maqsadida davstavval subsidiya asosida zamonaviy tikuv mashinasi va boshqa zarur jihozlar olib beriladi. Yangi dastgohlar buyurtmalarni tez va sifatli bajarishga imkon yaratadi. Ish sifati yaxshilanishi va buyurtmalar tezlik bilan bajarilishi natijasida mijozlar ham ko'payta boshlaydi. Aholining bu talabini qondirish uchun Mashhura ikki qo'shni qizni ham ishga yo'llaydi.

Oilaviy tadbirkorning ishlari bir tizimga tushgach, u faoliyatini yanada kengaytirish yo'lini izlaydi. Chunki endi Mashhura nafaqat mohir tikuvchi, tadbirkorlik qilish uchun zarur ko'nikmalarni ham egallab olgandi. Mahalla faollari tadbirkor ayolning bu intilishini qo'llab-quvvatlab, unga "Biznesga birinchi qadam" loyihasi asosida imtiyozli kredit ajratilishiga ko'maklashdi.



Hozir oilaviy korxonada ish qizg'in. Buyurtmachilar soni ham ko'payib boryapti. Buning ortidan oila byudjetiga yaxshigina daromad kirishi farzandlar salomatligi va ta'lim-tarbiyasiga e'tiborni ham kuchaytirdi.

Mashhura maktabda o'qiyotgan farzandlarini o'quv kurslari va kasb-hunarga yo'naltirishga ham vaqt topyapti. Qaynonasi 70 yoshli Xadicha aya Yaqubova ham kelining ishi yurishganidan juda mamnun.

Bu "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturining birgina oila taqdirida o'zgarish yasayotganiga kichik bir misol. Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida so'z yuritarkan, kambag'allikni kamaytirish oylik yoki nafaqa miqdorini ko'paytirish, yoppasiga kredit berish degani emasligini ta'kidlaydi. Buning uchun, eng avvalo, aholini kasbga o'qitish, moliyaviy savodxonligini oshirish, odamlarda tadbirkorlik hissiini uyg'otish, infratuzilmani yaxshilash, farzandlarini o'qitish, sifatli davolanish, manzilli nafaqa to'lash tizimini joriy qilish zarurligini uqtiradi.

Darhaqiqat, kasb-korli insonning rizqi hamisha butun bo'ladi. Tadbirkorlik esa nafaqat bir inson yoki bir oilaning to'kisligi, balki jamiyat farovonligini yuksaltirishda muhim omil. Shu bois, yurtimizda tadbirkorlar safini kengaytirish, ishbilarmon insonlar biznesga kirib kelishi uchun qulay muhit va imkoniyatlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, kambag'allikni keltirib chiqaruvchi eng katta muammolardan biri — ishsizlikni bartaraf etish, aholi bandligini ta'minlash uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilyapti.

Respublikamizda har yili aholi bandligini ta'minlash bo'yichasidagi dasturlarni amalga oshirish, bo'sh va kvotalnadigan ish o'rinlariga ishga joylashtirish mexanizmlarini takomillashtirish, o'zini o'zi band qilishning samarali shakllarini rivojlantirish borasida "s'irchan chora-tadbirlar ko'rilmog'adi.

Aholining ishchanlik faolligini va tadbirkorlik tashabbuslarini rag'batlantirish,



borada aholiga har tomonlama ko'mak bermog'adi. Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi matbuot xizmatidan ma'lum qilishlaricha, hokim yordamchilari sa'y-harakati bilan o'tgan yil besh yarim milliondan ko'proq aholi daromadli ish bilan band qilindi. Jumladan, yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati kengayishi hisobiga 156,5 ming kishi ishli bo'ldi.

Bundan tashqari, qishloq joylarda tomorqadan samarali foydalanish bo'yicha muhim chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Shu bilan birga, ishsizlikni bartaraf etish maqsadida ijara asosida yer ajratish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

ishsizlarning bandligini ta'minlash choralari ko'rilmog'adi.

Xususan, 652 kishiga oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi bo'yicha kredit ajratildi. 163 nafariga subsidiya asosida asbob-uskuna olib berildi. Shuningdek, "Biznesga birinchi qadam" loyihasi orqali aholini tadbirkorlikka jalb etish, ishsizlikni bartaraf etish choralari ko'rilmog'adi.

Bu borada Quyosh mahallasida ham ibratli ishlar amalga oshirilmog'adi. Mazkur mahalla poytaxtimizning aholi zich joylashgan hududlaridan biri. Uning drayveri xizmat ko'rsatish sohasidir. Biroq bu yerda yangi binolar qurish imkoniyati yo'q. Ishsizlikni bartaraf etish va bandlikni ta'minlash uchun mahallaning mavjud infratuzilmasidan unumli foydalanish lozim. Shuning uchun zamonaviy andozalar asosida barpo etilgan guzarda bo'sh turgan xonalar tadbirkorlarga berilyapti.

“ Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 32 yo'nalishda pilot loyihalar amalga oshiriladi. Bunda 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarishning manzilli tadbirlar rejasini tasdiqladi. Og'ir toifadagi 300 ta mahallada quyosh fotoelektr stansiyalari quriladi va ularga xizmat ko'rsatish uchun kambag'al toifadagi oilalarning 900 a'zosi o'qitilib, ishga olinadi. Natijada 25 ming kambag'al oila barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.



Hakim YO'LDOSHEV olgan suratlar.

jumladan, ijtimoiy zaif qatlamlar bandligini ta'minlash bo'yicha davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyati, sifati va tezkorligini oshirishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ana shunday ishlar natijasida 2024-yilda aholi bandligiga ko'maklashish dasturi doirasida yangi ish o'rinlarini yaratish orqali 5 million kishi ish bilan ta'minlandi.

Bu amallarni tizimli yo'lga qo'yish va muttasil rivojlantirib borish maqsadida ilg'or xorijiy yondashuvlar hamda mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, eng quyi bo'lg'in — mahalla darajasiga tushgan holda kambag'allikka qarshi kurashish borasida muvaffaqiyatli tajriba yaratildi.

Umuman, 2024-yilda aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka jalb qilish, tomorqa va dehqonchilik uchun ajratilgan yerdan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ko'rilgan shunday choralar kambag'allik darajasini pasaytirishga katta hissa qo'shdi. Buning natijasida 2024-yilda aholining real daromadi 10,7 foiz o'sib, jon boshiga oyiga o'rtacha 2,1 million so'mdan to'g'ri keldi.

Shu yil 3-fevral kuni Prezidentimiz raisligida aholi bandligini ta'minlash va investitsiyalar jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan o'tkazilgan yig'ilishda bu boradagi ishlar tahlil etilib, vazifalar belgilab berildi. Davlatimiz rahbari "2025-yil bandlikni ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda eng muhim va hal qiluvchi yo'l bo'ladi", deya ta'kidladi. Xususan, bu yil 5 million 200 ming aholini band qilib, 1,5 million odamni kambag'allikdan chiqarib, 42 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etib, eksportni 30 milliard dollardan oshirish hisob-kitob qilingan.

Bu yo'nalishda yurtimizning barcha hududlari kabi poytaxtimizning Olmazor tumanida ham tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. Xususan, joriy yilda 500 oilaga mutasaddi rahbarlar birlashtirilib, ularni kambag'allikdan chiqarishga kirishilgan. Shuningdek, xatlov jarayonida aniqlangan

Hokim yordamchisi tomonidan "Biznesga birinchi qadam" loyihasi asosida 22, biznesni rivojlantirish bo'yicha 5 kishiga kredit olish uchun tavsiya berildi. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi bo'yicha 6 kishiga 33 million so'm kredit ajratilishiga ko'maklashildi. 16 odam o'zini o'zi band qilish asosida turli mehnat qurollari bilan ta'minlandi.

Natijada mahallada tadbirkorlar ko'paymoqda. Masalan, mahalla guzarida bo'sh turgan xonada ish boshlagan bir tadbirkor maktabga tayyorlov, chet tili hamda boshlang'ich ta'limdan bolalarga saboq berishni yo'lga qo'ydi. Bu farzandini o'quv kurslariga jalb etishni ko'zlab yurgan ota-onalar uchun qulay imkoniyat bo'ldi.

"Ayollar dasturi"da ro'yxatda turgan yana bir ayol davstavval o'zini o'zi band qilgan bo'lsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi asosida bankdan kredit olib bergilgach, faoliyatini kengaytirishi ortidan boshqa ayollarni ishli qildi. Ishsizdan tadbirkorlarga aylangan Shahlo Ziyoyeva ham hozir kompyuter xizmatlari va kichik bosmaxona ochib, aholiga xizmat ko'rsatyapti. Iroda Haydarova esa uyidan do'kon ochib, elga xizmat ko'rsatmoqda.

Mahallada faoliyat yuritayotgan yana bir korxonada ichki va tashqi sayyohlik sohasida xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan. U arzon narxda xizmat turlarini taqdim etib kelmoqda. Mahalla ahli bu imkoniyatdan foydalanib, yurtimizning tarixiy go'shalari, diqqatga sazovor joylariga sayohat uyushtiryapti. Ayni paytda "mahalla yetiligi" ishsizlar, migratsiyadan qaytganlar bandligini ta'minlash bo'yicha reja ishlab chiqqan.

— Qariyb bir yildan beri mahallada kambag'allikni kamaytirish, aholi bandligini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ishlayapman, — deydi Olmazor tumani "Quyosh" mahalla fuqarolar yig'inidagi hokim yordamchisi Nargiza Ahmedova. — Bu qisqa muddat bo'lsa-da, muayyan natijalarga erishayotganimdan faxrlanam. Albatta, yuqularimiz ushbu sohaga qaratilayotgan katta e'tibor samarasidir. Joriy yilda ayni jabhadagi ishlarni yanada rivojlantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlar safarbar etilyapti. Bizning vazifamiz ko'mak va moliyaviy mexanizmlarni amalga to'g'ri tatbiq etib, xalqimizning farovon hayotini yanada yaxshilashga munosib ulush qo'shishdir.

Albatta, sohada erishilayotgan bunday natijalar quvonarli. Shu bilan birga, hali qilinadigan ishlar ko'p. Xususan, ishsizlik butun dunyoda bo'lgani kabi yurtimizda ham jiddiy muammo sifatida ming-minglab odamlar hayoti, iqtisodiy rivojlanishga to'sqinlik qilmoqda.

Prezidentimizning "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Atrof-muhitni asrash va "yashil iqtisodiyot" yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida bu yo'nalishda muhim chora-tadbirlar belgilandi. 2025-yilda aholini daromadli mehnat bilan ta'minlash dasturi esa bu borada amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan eng muhim huquqiy asos hisoblanadi. Dasturga muvofiq, 2025-yilda 5,2 million, jumladan, banklar tomonidan 3 milliondan ziyod aholini band qilish rejalashtirilmoqda.

Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha 32 yo'nalishda pilot loyihalar amalga oshiriladi. Bunda 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarishning manzilli tadbirlar rejasini tasdiqladi. Og'ir toifadagi 300 ta mahallada quyosh fotoelektr stansiyalari quriladi va ularga xizmat ko'rsatish uchun kambag'al toifadagi oilalarning 900 a'zosi o'qitilib, ishga olinadi. Natijada 25 ming kambag'al oila barqaror elektr energiyasi bilan ta'minlanadi.

O'rmon yerlariga tutash 312 mahalladagi kambag'al aholi 20 ming gektar yerga o'rmon va ko'chatzorlar barpo etish hamda dorivor o'simliklarni yetishtirishga jalb qilinadi. Bunda 100 gektarda brussonetiya (qog'oz daraxti) yetishtirish sinovdan o'tkaziladi. Namangan, Toshkent va Xorazm viloyatlarida parrandachilik klasterlari tashkil etiladi.

60 ta tuman va shahar kambag'allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantiriladi. Bunda 3 mingta mahallada 2,1 million aholi daromadli mehnat bilan ta'minlanadi va 431 ming nafar kambag'allikdan chiqariladi. Sharoiti og'ir 71 ta tumaning 2,7 mingta mahallada bandlikni ta'minlash va kambag'allikdan chiqarishning alohida choralari belgilanadi. Bunda 1,4 million aholi bandligi ta'minlanadi, 468 ming nafar tadbirkorlikka jalb qilinadi va 459 ming nafar kambag'allikdan chiqariladi.

Ishsizlar talab yuqori kasblarga o'qitilib, ishga joylashtiriladi. Jumladan, joriy yilda

220 ming ishsiz aholini kasbga o'qitib, ishga joylashga yordam ko'rsatiladi. Bunda elektromobil, quyosh panellari, lift ustasi, ishlab chiqarish dizayneri, chiller ustasi kabi 12 ta yangi yo'nalishda o'qitish yo'lga qo'yiladi.

"Ta'lim oluvchi ortidan pul boradi" tamoyili asosida ishsiz aholini kasb-hunarga o'qitish xarajatlarini qoplash bo'yicha vaucher tizimi joriy etiladi. Ushbu tizimga asosan, o'qish xarajatlari fuqaro tanlagan ta'lim muassasasiga vaucher asosida to'lab beriladi. Mazkur tizim Samarqand viloyati va Toshkent shahrida sinovdan o'tkaziladi.

Vaucher asosida davlat o'quv markazlari bilan birga nodavlat o'quv markazlarida ham o'qish mumkin. Bunda 35 turdagi talab yuqori bo'layotgan zamonaviy kasb, xususan, elektromobillar hamda quyosh panellarini ta'mirlash, kompyuter texnologiyalari mutaxassisliklari o'rgatiladi. Bundan tashqari, nemis tilini o'rganish istagidagi fuqarolar uchun vaucher beriladi.

Kasb-hunar o'rganish istagida bo'lgan ishsiz va ish qidirayotgan yurtodoshlarimizning vaucher imtiyoziga ega bo'lish uchun yosh chegarasi belgilanmagan, o'qish muddati bo'yicha cheklolvar ko'p yillmagan. O'quv kurslari uchun to'lov 100 foiz to'lab beriladi. Ta'lim muassasalariga Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tomonidan to'lovning dastlabki 50 foizi o'qish boshlanganida, qolgan yarmi sertifikat olingandan so'ng to'lanadi.

Xo'sh, vaucherni olish uchun nima qilish lozim? Buning uchun fuqaro tomonidan tuman yoki shahardagi kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga murojaat qilinadi. Bir necha daqiqa ichida fuqaroning mobil telefoniga yuborilgan havola orqali QR-kodli vaucher yuklab olinadi. Ushbu vaucher kasb-hunar yoki xorijiy tilni o'rganish istagidagi fuqaro tomonidan o'zi xohlagan o'quv markaziga taqdim qilinadi. Vaucher qaysi viloyatdan olingan bo'lsa, o'sha hududdagi o'quv markazlari uchun amal qiladi.

Masalan, Toshkent shahridagi tuman bandlik bo'limlaridan olingan bo'lsa, poytaxtning istalgan hududidagi o'quv markazlarida o'qishi mumkin. Bugungi kunga qadar Toshkent shahri va Samarqand viloyatidan 63 ta davlat va nodavlat ta'lim tashkiloti vaucher tizimi bo'yicha o'qitish uchun ro'yxatdan o'tgan.

Bu jabhadagi ishlar xalqimizning hayoti sifatiini yaxshilash, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Zero, ishsizlikni bartaraf etish va bandlikni ta'minlash sohasidagi ishlar nafaqat yangi ish o'rnini daromad manbai, balki to'kin hayot va farovonlikka ham mustahkam zamin yaratmoqda. Yurtimizga tashrif buyurayotgan xorijlik ekspertlar O'zbekiston qisqa muddatda yaratgan ushbu tajribalarni yuqori baholab, uni o'rganish va tatbiq etishga e'tibor qaratayotgan mamlakatimizdagi katta o'zgarishlarning munosib e'tirofidir.

Inson qadriini ko'zlab amalga oshirilayotgan bu islohotlar bardavom bo'lishi uchun yurtimizda salohiyat va imkoniyat yetarli. Eng muhimi, katta maqsad va rejalor ro'yobi yo'lida xalqimiz bilan bamaslahat ishlanyapti. Jamiyatimizdagi ushbu hamjihatlik esa bugungi davrning murakkab sinovlariga qaramay, ko'zlangan yuksak marralarga erishishga zamin yaratadi.

Yangicha yondashuvlar

400 GEKTARLI UZUMZOR

BULUNG'UR DALALARIDA yetishtirilgan SARXIL MEVALAR XALQIMIZ DASTURXONI va DUNYO BOZORLARINI to'ldiradi



Sanjar ESHMURODOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, keyingi yillarda foydalanishdan chiqib ketgan yemi yana hosildor bog', uzumzorlarga aylantirish, yangicha yondashuv, agrar sohadagi innovatsion texnologiyalarni ishga solgan holda karrasiga ko'p daromad olish uchun jadal sur'atda, qizg'in ishlamoqda.

Xususan, davlatimiz rahbarining o'tgan yili 30-sentabrda "Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog' va tokzorlarni barpo qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan mamlakatimizdagi tog'oldi qir-adirlarlarda hamda eskirgan tizimdan foydalanadigan, iqtisodiy daromad keltirmay qo'ygan, samarasiz bog'lar o'rmda yangi intensiv, hosildor bog' va uzumzorlar barpo etish ishlari bajarilmoqda.

Yangilanayotgan ziroatchilik maskanlarida oddiygina bog' va uzumzorlar tashkil etish pirovard maqsad qilib qo'yilmagan. U yerda zamonaviy agrotexnika vositalari, sohadagi ilmiy fan yutuqlaridan foydalanib, tom ma'noda hosili ko'p bog' va uzumzorlar yaratiladi. Hududning o'zida mahsulotni eksportga tayyorlash, qayta ishlash, qadoqlash korxonalarini, saqlash uchun zarur shart-sharoit hozirlanib, yirik agrosanoat xabiga aylantirish ko'zda tutilmoqda.

Albatta, bu islohotlar, avvalo, mahalliy aholi bandlegini ta'minlab, turmushini yanada farovonlashtiradi, qolaversa, mamlakatimizning ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirib, katta daromad keltiradigan tarmoqqa aylanadi.

Avvallari qish fasli deyilsa, ko'z o'ngimizda qorbo'ron o'ynayotgan bolalar yoki qalin qor sabab yaqin qo'shnilar ham bir-biri bilan kunlab ko'rishmagani, shahar ko'chalarida avtomashinalar harakatlanishi qiyinlashgani jonlanar edi. Yaqin yillarda tizza bo'yi qor haqida gap ketsa, ertaklarda sodir bo'lgan jarayondek tasavvur qila boshladik. Ba'zida esa qish faslida yog'magan qorning erta ko'klam yog'ib berishi ortidan kurtaklagan daraxtlar va boshqa ekinlarni sovuq urush hollari ham uchrab turibdi. Shuningdek, yog'in-sochinning o'z vaqtida yog'magani sabab to'yinmagan yerdagi hosil nobud bo'layotgani ayni haqiqat. Bu kabi holatlar dunyo miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosini yuzaga keltirmoqda.

Ayniqsa, aholi ko'payib borishi ortidan yerdan bir necha bora hosil olishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa yerning unumdorligini pasaytiradi. Hosilni oshirish uchun biokimyoviy o'g'itlardan ko'proq foydalanilmoqda. Bunday murakkab jarayonda iqlim o'zgarishlariga xos, qurg'ochlikka va kasalliklarga bardoshli navlar yaratish hamda zarur agrotexnik jarayonlarni o'z vaqtida bajarish talab qilinadi.

Xalqimizda "Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang, yuz hayda" degan naql bor. Uning ma'nosini dehqonchilikdan xabari bor inson yaxshi tushunadi. Odatda ota-bobolarimiz ekin ekishda yilning kelishiga katta e'tibor bergan. Qor va yomg'ir yog'ishiga qarab yerga urug' qadagan. Xususan, bug'doy aksariyat holda kuz faslida ekilgan. Boisi, qor suvi bilan to'yinmagan g'alla xirmoni barakali bo'ladi. Shuning uchun ota-bobolarimiz "Qor yog'di — non yog'di", degan bo'lsa, ajabmas.

Yil yilga o'xshamas

Dunyo bo'yicha iste'mol qilinadigan oziq-ovqatning asosiy qismini don va don mahsulotlari tashkil etadi. Ayniqsa, xalqimiz nomi ko'p iste'mol qiladi. Shu jihatdan bug'doyning hayotimizdagi o'rni nihoyatda katta.



butkul bekor qilindi. Endi tumanda mevasabzavot yetishtirish hajmi ko'paytiriladi. Bu bilan qanchadan qancha odamning bandligi ta'minlanadi. Daromadi ikki-uch karra ko'payadi.

Bu qarorga o'z-o'zidan kelinmadi. Taqqoslab

tabiyyi sharoiti o'rganilib, davlatimiz tomonidan yo'naltirilayotgan imtiyozli kredit, subsidiya mablag'i bilan maxsus laboratoriyalarda yetishtirilgan yoki xorijdan olib kelingan ko'chatlar tanlab olinib, o'tqazilyapti.

ko'ra, dehqonlarning ko'chat uchun sarflagan xarajatining muayyan qismi o'ziga qaytarib berilyapti.

Bundan tashqari, yurtimizdagi maxsus "in-vitro" laboratoriyalarida ham yangi, hosildor, intensiv bog'lar, uzumzorlar uchun



ko'rilganda hududdagi bir gektar yerdan olingan paxta, g'alla hosili bir kilo gilos narxidan ancha past bo'layotgani oydinlashdi.

Qir-adirlarda bog' va tokzorlar barpo etish ishlari "ko'chat o'tqazib ko'raylik, unaka unib qolar, bo'lmasa yo'q" qabilidagi tavsallik bilan qilinayotgan yumushlar emas. Avvalo, tanlangan hududning iqlimi,

Zamonaviy suv inshootlari, sug'orish tarmoqlari barpo etilmoqda. Bu sa'y-harakatlar natijasida hosildorlik ikki-uch barobar oshirilishi ko'zda tutilmoqda. Qisqasi, barchasi tizimli ravishda ilm-fan yutuqlari, dehqonlarimizning ko'p yillik tajribasiga tayangan holda yo'lga qo'yilayotir.

Ilm va tajriba uyg'unligi samara beradi

Xalqimizda "Nima eksang, shuni o'rasan" degan naql bor. Shuning uchun ham barpo etilayotgan va yangilanayotgan bog'larga sifatli, unumdor ko'chatlar yetkazib berish ham muhim. Bu borada yurtimizdagi yangi istiqbolli navlarni yetishtirayotgan, sertifikatga ega yuzdan ortiq ko'chatchi integratsiya qilindi va yangi bog'lar uchun ko'chat tayyorlash topshirig'i berildi. Ayni paytda ular sifatli ko'chat yetishtirishga kirishgan. Nihollarni sotib olayotgan dehqonlarga yangilik bo'lishi uchun davlat tomonidan subsidiya ajratilyapti. Unga

ko'chatlar yetishtirilmoqda. Laboratoriyalarda ko'kartirilayotgan nihollar sovuqqa chidamliligi, turli kasalliklarga chalinmasligi bilan oddiydalaridan farq qiladi. Eng asosiy xususiyati — ularidan hosildorligi ikki-uch barobar baland.

Shunday zamonaviy texnologiyalar asosida ko'chatlar tayyorlanayotgani mamlakatimizda agrar soha taraqqiy etib borayotganidan darak beradi. Ilgari bunday ko'chatlarning barchasi xorijdan katta mablag' evaziga olib kelinardi. O'zimizning laboratoriyalarda tayyorlanayotgan ko'chatlar arzon, sifatli va ishonchli. Ayni shunday laboratoriyalarning bir nechtasi Samarqand viloyatining Jomboy tumanida ham tashkil etilgan. Unda olma, o'rik, pista, bodom, uzumning o'ndan ortiq turi intensiv ko'chatlari tayyorlanmoqda. Shuningdek, ushbu laboratoriyalarda xorijdagi "in-vitro" laboratoriyalarida yetishtirilgan ko'chatlarning tuproq-iqlim sharoitiga mosligi ham sinovdan o'tkazilyapti. Jumladan, tumandagi laboratoriyalardan biriga Ispaniyadan keltirilgan

34 xil uzum navi sinov tariqasida o'tqazildi. Bir o'z muddatdan so'ng navlarning 14 tasi iqlim sharoitimizga mosligi aniqlandi. Endi ular ochiq maydonlarga ekilyapti.

Xo'sh, laboratoriyalarimizda sifatli, hosildor navli ko'chatlarimiz bor ekan, xorijdan keltirilgan yangi navlarning o'zlashtirilishiga qanday ehtiyoj bor?

Bu amaliyot bizga bioxilma-xillikni ta'minlash, uzum navlarining turi va sifatini ko'paytirish, xalqimiz dasturxonini sarxil uzumlar bilan to'ldirish imkonini beradi.

Poydevoiri mustahkam imorat qulamaydi, deganlaridek, sifatli ko'chatlar ekilgan intensiv bog' va uzumzorlardan eksportbop, oliy navli mahsulot olishimiz tayin. Bu esa, o'z navbatida, agrar soha rivojiga hissa qo'shib, tarmoqdan mo'may daromad qilinishiga zamin hozirlaydi.

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi

Yaxshidan bog' qoladi, deya qir-adirlarda zamonaviy intensiv bog'lar barpo etishga hissa qo'shishni istagan tadbirkorlarimizga yer uchastkasi bog' va tokzorlardan foydalanish huquqi bilan birga 30 yil muddatgacha ijaraga beriladi. Sababi bog' yaratish ikki-uch kunda qilinadigan, bir-ikki yilda to'laqonli foyda keltiradigan soha emas. Birgina niholni yerga qadaganiyuzdan so'ng uni meva berguncha bir necha yil tagini yumshatib, sug'orib, ozuqasini berib parvarishlashingizga to'g'ri keladi. Endi birgina daraxt emas, butun boshli bog' yaratishning mashaqqatini tasavvur qilavering. Shu bois, farmonga binoan, tadbirkorlar uzoq muddat davlatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlab turiladi. Ya'ni tadbirkorlarga 3 yillik imtiyozli davr bilan 7 yilga kredit ajratilishi belgilangan. Shuningdek, faoliyatida tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etgan tadbirkorlar uchun uzoq muddatli subsidiyalari ajratiladi.

Bunday imkoniyatlardan, albatta, mehnatdan qochmaydigan, yerni, dehqonchilikni sevadigan tadbirkorlarga foydalana oladi. Chunki mirishkorlikning og'ir mashaqqatiga hamma ham bardosh berolmaydi. Agar tadbirkor yerni olib, 12 oy davomida hududda yangi bog' barpo etmasa, 3 barobar ko'p yer solig'i to'laydi hamda yerni boshqa tadbirkorga o'tkazish chorasi ko'riladi. Ushbu loyiha doirasidagi ishlar to'liq hisob-kitob qilingan holda ayni tizimlashtirilgan tarzda bajarilmoqda.

Ushbu islohotlar barcha hududlarda amalga oshirilib, 2024-2025-yillarda respublikamiz miqyosida 43 ming gektar maydonida yangi hosildor bog' va uzumzorlar barpo etish rejalashtirilgan. Shundan eng ko'pi — 6500 gektari Samarqand viloyati hududiga to'g'ri keladi.

Chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi, deyishadi. Mirishkorlarimiz echa baland marrani ko'zlamoqda. Ushbu reja bajarilishi mamlakatimizning ko'pgina hududlari yashillikka burkanishini bildiradi. Bu esa, o'z navbatida, yurtimiz ekologik muhiti, tabiati yashilashishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur ishlar uddalanishi birgina agrar sohaning emas, balki butun davlat va jamiyatimiz yutug'i bo'ladi. Chunki bu xalqimiz dasturxonini yanada to'kin bo'lishi qatorida aholi bandlegini ta'minlash orqali turmush darajasini yaxshilash, dunyo bozorida mahsulotlarimiz o'z o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Dolzarb mavzu

G'ALLA PARVARISHIDA HAR BIR KUN MUHIM

KATTA XIRMON ko'tarish vaqti kelmoqda, AMMO...

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



yili noyabrda o'rtacha kunlik harorat 7-9 daraja issiq, dekabr oyida 3-5 daraja sovuq bo'lgani sababdir. Bunday ob-havo sharoiti g'allaning rivojlanishi uchun muhim sanalib, hosil tinim davrida bo'ladi.

Kechikish hosilga zarar

2025-yil hosili uchun mamlakatimizda 996,9 ming gektar maydonida kuzgi bug'doy ekilgan. Dehqon va fermerlar joriy yil ham mo'l hosil, katta xirmon ko'zlab turgan bo'lsa, ajabmas. Ammo aksariyat fermerlar va olimlar bu yil yog'ingarchilik o'tgan yillarga nisbatan kam bo'lib, qish fasli quruq kelgani hosilning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilayotgani haqida gapirmoqda.

Joriy yil uchun ekilgan kuzgi g'alla maydonidagi ekinlar o'ta murakkab jarayonni boshdan kechirmoqda. Bugun ekilgan har bir g'alla naviga, ekilgan muddatiga hamda holatiga qarab o'g'itlash, sug'orish va g'allachilikda

qilinadigan boshqa agrotexnik tadbirlarga o'ta ehtiyotkorlik bilan yondashish taqozo qilinayapti, — deydi Don va dukkakli ekinlar ilmiy-tadqiqot instituti direktori Ravshanbek Siddiqov. — Olimlarning kuzatuv natijasida bir kun kechikkan g'alla bir sentner hosil yo'qotadi. O'tgan yili oktyabr-noyabr oylari seryog'in bo'lgani g'alla ekish muddatini bir oz kechiktirdi. Natijada bugun umumiy g'alla maydonidan kelib chiqqan holda barcha hududlarda 10-15 foiz g'alla rivojlanishdan ortda qolmoqda. Vaziyat endi har bir navning xususiyatiga ko'ra alohida yondashuv kerakligini talab qilmoqda.

Kuzgi bug'doy havo va tuproq namligiga talabchan ekin. Bug'doyning chidamliligi yuqori bo'lishi uchun o'simlik dastlabki sovuq tushungacha qadar rivojlanishning tuplanish bosqichida bo'lishi kerak. Ayniqsa, kuzgi yog'ingarchilik o'simlikning sovuqqa chidamliligini oshiradi va ildizini mustahkamlaydi. Bahorgi namlik esa ildizning boshqa organlari o'sishiga xizmat qiladi. Ob-havo quruq va iliq, yog'ingarchilik kam

bo'lishi g'alla maydonidagi tuproqning 20-25 santimetr qatlamida namlik yetishmasligiga sabab bo'ladi.

Ayni kunlarda kunduzi ob-havo 8-10 daraja iliq, tunda esa 1-5 daraja sovuq bo'lmoqda. Harorat ko'tarilgan sari o'sishi va rivojlanishi sababli maysalar ko'p energiya sarflamoqda. Natijada ularga ozuqa moddalari yetishmasligi kuzatilmog'ya.

Qanday choralar ko'rish kerak?

Fevralda ham ob-havo iliq kelishi g'allani azotli o'g'itlar bilan oziqlantirish va sug'orishni talab qilmoqda. Bu oyda berilgan o'g'it va suv ta'sirida o'simlikning ildiz tizimi rivojlanib, tuplash bo'g'ini kattalashadi hamda bu qismda shakar moddalari ko'payadi. Ya'ni g'alla o'sish o'rni qatlamda bo'g'inini kattalashiradi. Natijada erta bahorda yirik poyalar naychalarida yirik boshloqlar hosil bo'lishini ta'minlaydi. Bunday holatda fevralda ob-havo sharoitini inobatga olib, kechi va rivojlanishdan ortda qolgan g'alla maydonlarini maqbul oziqlantirish va sug'orish ishlarini ilmiy asoslangan holda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti direktori, professor Oybek Omonov g'alla maydonida bugungi sharoitda ko'rinishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar haqida tavsiyalar berdi. Unga ko'ra, bug'doy maysasi to'liq unib chiqmagan maydonlarda suv berish orqali tuproqning ishqorli muhitini yaxshilash va sho'rni yuvish zarur. Bunda suv orqali tuproqdagi namlik saqlanib, ildiz sistemasi o'sishi ta'minlanib, g'allaning tuplash jarayoni tezlashadi. Mart oyiga kelib, 3-4 ta tup hosil qilishga erishish mumkin. May oyida havo harorati keskin ko'tarilganda tuproqning 30-35 santimetr chuqurligida namlik saqlanishi va o'simliklarni mineral oziqlantirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, boshloqlarda don to'liq shakllanishi uchun suspenziya bilan ishlash berish tavsiya etiladi. Bu choralar samarali qo'llansa, har gektardan 80-100 sentnegracha hosil olish imkoniyati vujudga kelishi mumkin.

Tejamkorlik — zamon talabi

Odatda "suvtekin" iborasini ko'p ishlatamiz. Balki bu ibora uyimiz oldidan oqib o'tgan ariqlar, soyda to'lib-toshgan suvga nisbatan qo'llangandir. Ammo keyingi yillarda chuchuk suv xazirasi dunyo bo'yicha global muammoga aylanmoqda. Yurtimizda ham suvni tejash, odatdagi sug'orish usullaridan voz kechib, tomchilatib va boshqa zamonaviy yo'llar orqali sug'orishga katta urg'u berilmog'ya.

Biroq aksariyat fermerlar ekinini hali-hamon kanal va ariqlardan eski usulda sug'ormoqda. Oqibatda ko'plab hajmda suv yo'qotilmog'ya. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, betonlangan ariqlar orqali suv bo'layotgan 20-30 foiz suvni tejab qolishi mumkin. Tejamkorlik bugun nafaqat zamon talabi, balki ortiqcha xarajatdan ham asraydi.

Keyingi yillarda iqlim o'zgarishi, xususan, qurg'ochlik yillarda yilmi yilmi aksariyat dehqon va fermerlar foyda o'rni qatlamda chiqmog'ya. Oqibatda yer foydalanilmay, ishlovdan chiqib ketayotgan holatlar ham kuzatilmog'ya.

G'allachilik sohasida ilg'or innovatsion yechimlar va agrotexnik tadbirlarning ahamiyati salmoqli. Bu borada fermer va agronomlar, soha mutaxassislari bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi.

SPORT SHUNCHAKI O'YIN VA MUSOBAQA EMAS,

MILLAT GENOFONDI, mamlakat qudrati, OBRO'-E'TIBORIDIR



Bahodirjon SHERMUHAMMADOV, pedagogika fanlari doktori, professor

Inson hayotida sport muhim ahamiyat kasb etib, sog'lom turmush tarzi, intizom, iroda, g'alaba ishtiyoqi, jamoaviylik, sof raqobat, jismoniy hamda ma'naviy tarbiyadir. Butun dunyoni birlashtiruvchi, ellarni ellarga, dillarni dillarga tutashiruvchi kuch ham sport. Sportchi yoshlarimizda ham jismoniy, ham chinakam insoniy fazilatlar to'g'ri shakllanib borib, ular o'zgacha vatanparvarlik, yurtga va millatga sadoqat ruhida unib o'smoqda.

Mamlakatimizda ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish borasidagi islohotlar natijasida shu o'zgarishlardan bahramand bo'lib ulg'ayotgan yoshlarimiz jahon arenalarida munosib o'rin egallamoqda, yurtimiz bayrog'ini dunyo uzra baland ko'tarmoqda. Chunki yoshlarimizdagi sportga bo'lgan qiziqish doimo qo'llab-quvvatlanmoqda va sport sohasini dunyo miqyosida rivojlantirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida e'tibor qaratilmoqda.

Prezidentimiz, Milliy Olimpiya qo'mitasi raisi Shavkat Mirziyoyev boshchiligidagi joriy yil 13-fevral kuni olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi, unda belgilangan yangi o'zgarish va tartiblar, imkoniyatlar hamda tashabbuslar ham yuqoridagi islohotlarning yuksak zalvorini aniq ko'rsatib berdi.

Yig'ilishda sport sohasi chuqur tahlil qilinarkan, rivojlanish yo'lining to'g'ri manzillari aniq ko'rsatildi. Bunda tizimda yondashuvlarni o'zgartirish, yoshlarni sportga, ayniqsa, olimpiya sport turlariga tayyorlash, ularni seleksiyalash, rag'batlantirish bo'yicha mutlaqo yangi metod yaratish zarurligi, Los-Anjelesdagi yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish maqsadida Olimpiya qo'mitasining hududiy bo'limlarini tashkil etish, ularga viloyat hokimlari boshchilik qilishi, shuningdek, joriy yilda kamida 10 nafardan sportchi va murabbiyni eng nufuzli xorijiy sport akademiyalarida o'qitish kabi tashabbuslar ilgari surildi.

Ahamiyatli, sportchilarni kelgusi Olimpiyadaga tayyorlash uchun zarur sharoit va infratuzilmaga 300 milliard so'm ajratilishi, Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida sportchilarning muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash uchun joyalardagi 310 ta sport maktabi milliy terma jamoalarning seleksiya bazasiga aylantirilishi belgilandi.

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, Nukus, Farg'ona, Samarqanddagi kabi sport fakulteti bo'lgan oliygohlar professor-o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, bitiruvchi kurs va magistratura talabalarini olti oyga sport maktablariga birlashtirish amaliyoti



yo'lga qo'yilishi ta'kidlanar ekan, bu muhim tajribani qo'llash imkoniyati Farg'ona davlat universitetida ham mavjudligi bizni behad quvontirdi.

Ayniqsa, oliygohlar rektorlariga yangi metodika va yondashuvlarni bevosita shu yerda joriy qilib, sport maktablarini dual ta'limning ilmiy-amaliy bazasiga aylantirish imkonini berilayotgani endilikda sport ilmi va amaliyoti uyg'unligi uzluksiz ta'minlanishi, sport maktablarida ta'lim sifati, ilmiy salohiyat, raqobatbardoshlik oshishi hamda mazkur sohaga qo'yiladigan investitsiya samaradorligi ko'tarilishi kabi istiqbolli natijalarga yo'l o'chadi.

Bugungi kunda Farg'ona davlat universitetida ham sport maktablari bilan hamkorlik, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish bo'yicha ishlar samarasini ko'rsatmoqda. Avvalo, bu borada jamoamizda ommaviy sport bilan shug'ullanish tartibi to'g'ri tashkil etilgani, har haftaning ikki kunida erta tongdan professor-o'qituvchilar, ishchi-xodimlar o'rtasida badantarbiya mashg'ulotlari o'tkazilishi, "sport oyligi" e'lon qilinib, marafonlar tashkilotirilayotgani ham talaba yoshlarga yaxshigina ibrat vazifasini o'tadi.

Talaba yoshlarning ommaviy sportga qiziqishini yanada oshirish yo'lidagi ishlar natijasida universitetdan nazda uloqtirish bo'yicha "Parij-2024" Paralimpiadasi oltin medali sohibi Yorqinbek Odilov, kamondan o'q otish bo'yicha jahon chempioni Ziyoda Abdusattorova, Chernogoriyaning Budva shahrida boks bo'yicha o'tkazilgan jahon

championatida faxrli 3-o'rinni, Toshkent shahrida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida 70 kilogramm vazn bo'yicha 1-o'rinni egallagan Oisha Toirova, Rossiya Federatsiyasining Qozon shahrida kurash bo'yicha o'tkazilgan jahon chempionati 3-o'rin sohibi Diyor Polvonboyev, ctol tennis bo'yicha Andijon viloyatida o'tkazilgan universiada musobaqalarining respublika final bosqichida yakkaalik bahsida 3-o'rinni egallagan Shoira Qodirova kabi chempion talabalar yetishib chiqdi. Bugungi kunda viloyatimizdagi sport maktablari va oliygohning chempionlikni ko'zlagan ko'plab yoshlari ushbu talabalarimiz mahoratini ustoz-shogird yo'nalishida birga o'zlashtirib bormoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi Odil Ahmedov futbol akademiyasining yangi filiali o'tgan yildan viloyatimizda ish boshladi. Xalqimizning sevimli futbolchisi tashkil etgan ushbu "Odil Junior" futbol maktabida 5 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan 100 nafarga yaqin tarbiyalanuvchi sport saboqlarini o'zlashtirmoqda. Farg'ona davlat universiteti bilan yaqin hamkorlik qilayotgan "Odil Junior" futbol maktabi yoshlari oliygohning sport kompleksi, futbol maydoni va barcha turdagi sport zallari, sport anjomlaridan doimiy ravishda foydalanadi va ular uchun hamisha jismoniy madaniyat fakulteti professor-o'qituvchilari mashg'ulotlari, kutubxonalar ochiq.

Oliy ta'lim muassasalari ichida o'z futbol klubiga ega bo'lgan yagona universitet sifatida

talaba yoshlar futbolini rivojlantirayotgan oliygohimiz futbol jamoasi natijalari ham kundan kunga yuksalib bormoqda. Hozirgi kunda pro-liga o'yinlarida ishtirok etish darajasiga chiqqan "FarDU" futbol jamoasi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sportchi Sergey Lebedov murabbiyligida yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Oliyog'ning sportchi talaba qizlari erishayotgan muvaffaqiyatlarga o'xtaladigan bo'lsak, yaqinda Rossiyada o'tkazilgan stritbol xalqaro turnirida Muslimaxon Muhammadiyeva



O'zbekiston terma jamoasi bilan birga faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritib, ushbu musobaqaning "Eng yaxshi o'yinchisi" nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalari talaba yoshlari o'rtasida o'tkazilgan "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalari respublika bosqichida ham stritbol bo'yicha FarDU qizlar jamoasi 1-o'rinni egalladi. Oliy ta'lim muassasalari sportning basketbol turi bo'yicha "Talabalar ligasi" musobaqasi hududiy bosqichida FarDU qizlar jamoasi 1-o'rinni egallab, finalga yo'l oldi. Stol tennis bo'yicha "Talabalar ligasi" musobaqasi hududiy bosqichida qizlar jamoasi faxrli 2-o'ringa munosib ko'rildi. Yana bir sportchi talabamiz Shoira Qodirova stol tennis bo'yicha Andijon viloyatida o'tkazilayotgan universiada

musobaqalari respublika final bosqichida yakkaalik bahsida 3-o'rinni egallab, bronza medalni qo'lga kiritdi.

Bundan tashqari, Namangan viloyatida futbol bo'yicha imkoniyati cheklangan sportchilar ishtirokida bo'lib o'tgan musobaqada talabalarimiz faxrli 1-o'rinni oldi. Aytish joizki, yaqinda oliygohlar o'rtasida bo'lib o'tgan universiada bahslari ham FarDU sportchi yoshlari uchun omadli kechdi. Kurash bo'yicha o'tkazilgan universiada sport musobaqalari hududiy bosqichida 7 nafar talabamiz 1-o'rinni, 4 nafari 2-o'rinni egallab, final bosqichiga chiqdi. Umumjamoa hisobida esa universitet 1-o'rinni qo'lga kiritdi. "Talabalar ligasi" voleibol musobaqasi hududiy bosqichida talaba yigitlar jamoasi faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritgan bo'lsa, kurash bo'yicha o'tkazilgan universiada sport musobaqasi respublika final bosqichida talabalarimiz Maftuna Xolmatova 48 kilogramm vaznda 1-o'rinni egallab, oltin medalga ega chiqdi, Ziyodillo Alijonov esa 73 kilogramm vaznda 2-o'rinni egallab, kumush medalga sazovor bo'ldi.

Bu yutuqlar, erishilgan g'alabalar negizini xolis tahlil qilgan holda aytish joizki, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilayotgan sport sohasidagi barcha tashabbuslar sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda oliy ta'lim muassasalari uchun eng muhim omil bo'lmoqda.

Ko'rinadiki, insoniyatning hamisha faol va sog'lom muhitga tashnligi jamiyat irodasi bilan chambarchas bog'liq zarurdir. Aynan shu zarurat insonning jamiyatda o'rni, hurmati, qadr-qimmatini ko'rsatadi. Bugun har bir oila idealiga aylangan va yaqinda Parij afsonalarida

qo'shilish oson bo'lmas. Lekin hammasini uddaladim. "Parij-2024" o'yinlari men uchun alohida ahamiyatga ega maydon bo'ldi. Allohga shukr, shunday g'alabaga qodir qildi va Prezidentimiz, xalqimiz, oilam oldida yuzim yorug' bo'ldi".

Shunday o'g'lonlarimiz misolida bugun xalqimiz farzandlariga bergan mehri va muhabbati, tarbiya va ko'magining mevasini tatitoygani haqiqat.

Yangi O'zbekiston tarixida ro'y bergan yana bir quvonarli voqealik — Abduqodir Husanovning muvaffaqiyati esa butun xalqimizga faxr-iftixor bag'ishladi. Abduqodir o'z harakati, intilishi va mahorati bilan sport rivoji uchun kechayotgan islohotlarning yurtga, millatga nima berishini amalda ko'rsatib qo'ydi. Ikki ta turli "kuchli beshlik" chempionatida o'ynagan birinchi o'zbek futbolchisining jurnalistlar savollariga bergan javoblari esa bugun hech bir vatandoshimizni befarq qoldirmayapti.

— Siz premyer ligada o'ynaydigan birinchi o'zbek o'yinchisiz. Bu g'urur onib bo'lsa kerak? — Ha, bu fagat men uchun emas, butun O'zbekiston uchun. Birinchi o'zbek "Manchester Citi"da. Bu hali boshlanishi. O'zbeklar hali ko'p keladi Angliyaga.

— Jahon chempionatiga O'zbekiston biror marta ham chiqmagan. U yerda futbol qanday rivojlanayapti? — Juda yaxshi rivojlanayapti. Bir qadam qoldi jahon chempionatiga chiqishimizga.

Mana, ko'z o'ngimda haqiqiy kelajak egasining javobi! Umid yuqori, ishonch baland, eng muhimi, sportni qanchalik sevsa, yurtini shu qadar sevardi, yutuqlarini kutadi.

E'tirof etish zarurki, yoshlarimizdagi o'zgarishlar va sohadagi katta siljishlar, o'zbek sportidagi kutilgan lahzalar joriy yilda yanada yorqinroq yuzaga chiqqan bo'ladi.

Biz nafaqat g'alabalaridan bahramand bo'ldik, balki barcha sportchilarimizdagi ajoyib umumiylik — yuksak vatanparvarlik ruhiga ham shohidim. Bu esa davlatimiz rahbarining o'zi shaxsiy namuna bo'lib, kelajak egalari qo'rsatayotgan hayotiy ibratini meva bera boshlagani ifodasidir.

Yaqinda dunyo sportsevarlari nigohida bo'lgan Javohir Sinarovning Xikaru Nakamura ga qarshi olamshuv g'alabasi shaxmat olamidagi katta shov-shug'va sabab bo'ldi. Sinarovning jasorati va mahoratiga barcha xalqlar havas qildi. Ushbu g'alaba yurtimizning yosh shaxmatchilarini uchun katta ilhom manbai bo'lib, ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, mehnat qilishga undamoqda.

Shu bilan birga, Gulruhbegim Tohirjonovanning O'zbekiston shaxmat terma jamoasiga qaytishi yana bir muhim voqealidir. Uning vatanga bo'lgan muhabbati va sadoqati yillar o'tsa-da, o'zini namoyon qildi. O'zbekistonga butunlay qaytgan shaxmatchimiz 2020-yilda AQSHning Missuri universiteti jamoasiga qo'shilgan va 5 yil davomida xalqaro musobaqalarda AQSH nomidan ishtirok etib kelardi. Endi esa kuchli qizimiz O'zbekiston milliy terma jamoasi safida ekan quvonarli.

Futbol bo'yicha O'zbekiston amputantlar terma jamoasining Osiyo chempioni bo'lishi esa alohida e'tirofga loyiq. Ularning g'alabasi nafaqat sportchilarimiz mahoratini, balki iroda kuchini ham ko'rsatdi. Ushbu g'alaba yoshlarimizga har qanday qiyinchiliklarni yengish mumkinligini isbotladi.

Qishki Osiyo o'yinlarida Dmitriy Chigiryov va Yekaterina Geynish jiftligining oltin medali esa tarixiy voqea bo'ldi. 26 yillik tanaffusdan so'ng qo'lga kiritilgan ushbu g'alaba O'zbekiston qishki sport rivojiga katta hissa qo'shadi.

Vatanparvar, shijoatli yoshlar uchun bu yurtda munosib rag'bat bor, ochilmagan eshikning o'zi yo'q. Shunday ekan, bu mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch egalari yetishib chiqaveradi. Marralar esa yuksak!

Yoshlar minbari

2025-yil 14-fevral ko'plab yoshlar qatori mening ham hayotimda juda muhim sana sifatida muhrlanib qoladigan bo'ldi. Sababi aynan shu kuni davlatimiz rahbari biz, yoshlar bilan samimiy muloqot o'tkazdi. To'g'risi, uchrashuv davomida bizga yaratib berilayotgan imkoniyatlar haqida eshitarkanman, shu mamlakatning farzandi ekanimdan faxrlanib ketdim. Kelajagimiz bugunimizdan ham ko'ra farovonroq bo'lishiga yana bir bor amin bo'ldim. Ayniqsa, davlatimiz rahbarining ehtiyojmand oilalar farzandlarini chet elda o'qitish bo'yicha aytgan gaplari menda katta taassurot qoldirdi.

GRANT YUTDIM!

MUVAFFAQIYAT ZAMIRIDAGI MEHNAT

Bugun yurtimizda yoshlar uchun barcha sharoit hamda imkoniyatlar bor. Buni ularidan foydalanib kelayotgan bir o'zbek farzandi sifatida baralla ayta olaman.

2007-yilda Farg'ona viloyatida tug'ilganman. Hozir Toshkent xalqaro Vestminster universiteti huzuridagi akademik litseyda o'qiyapman. Ortda qolgan 2024-yil men uchun unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Dekabr oyida dunyoga mashhur Garvard universitetidan 360 ming

AQSH dollari miqdorida grant yutib oldim. Xo'sh, bunga erishishim qanday kechdi? O'ylab qarasam, buning ham zamirida mamlakatimizda yoshlarga qaratilayotgan e'tibor mujassam. Keling, tushuntirib beray. Ko'pchilikka ma'lum, Garvard kabi nufuzli oliygohlardan to'liq grant yutib olish uchun bilimning o'zi kamlik qiladi. Bunda nomzodlarning ijtimoiy faolligiga ham alohida e'tibor beriladi. Men esa yurtimizdagi ko'plab ijtimoiy loyihalarda qatnashib kelaman.



Azizbek ZAYLOBIDDINOV, Toshkent xalqaro Vestminster universiteti huzuridagi akademik litsey o'quvchisi

Hozir Yoshlar ishlari agentligi tashabbusi bilan tashkil etilgan "Ibrat farzandlari"ning "Ibrat Debate" loyihasiga rahbarlik qilayapman. Bu loyihaning asosiy maqsadi ingliz tilini biladigan yoshlar orasida debatlar tashkil etish hisoblanadi. Aynan loyiha doirasida bugungi kungacha 100 ga yaqin debat tashkil qilindi. Ularda 3000 dan ziyod ishtirokchi qatnashdi. Ayni paytda loyihada 100 dan ortiq volontyor faoliyat yuritmoqda.

Oldimga qo'ygan maqsadlarim juda ko'p. Ularning eng asosiyi nufuzli oliyog'ha o'qib kelib, unda o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarimdan yurtimizda foydalanish, o'zim tanlagan iqtisodiyot yo'nalishining rivojiga baholi qudrat hissa qo'shishdir.

Yoshlar birlashsak, katta kuchmiz. Bizdan talab etiladigan bilimning qudratini vaqtda anglash, imkoniyatlardan boxabar bo'lib, ular natijasida erishgan yutuqlarimizni shu xalq rivoji uchun sarflash lozimligini hayotiy yo'rig'imizga aylantirishdir. Zero, bugungi kunning talabi ham aynan shu.



Mulohaza

NIMA UCHUN

KITOB O'QISH KERAK?

TO'RTINCHI MISOL

— Xizmat safari bilan Yaponiyaga bordik. Ertalab metrodan chiqishim bilan uzundan uzoq navbatda turganlarga ko'zim tushdi. "Yaxshi narsa sotilayotgan bo'lsa kerak. Men ham uyga olvolay" degan o'yda navbatda turdim. Navbatim kelib, qarasam, kioskdagi gazetaning yangi soni sotilayotgan ekan. Yaponiyaliklar qaysi kasbda ishlashidan qat'i nazar, ertalab gazetalarining yangi sonini mutolaa qilishni urfga aylantirgan.

XULOSA CHIQRISHGA SHOSHILAYLIK


Mamlakatimiz aholisining salkam 60 foizi yoshlar. Shu bois, yoshlar masalasi davlatimiz siyosatida strategik ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda so'nggi 8-yilda yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 120 ga yaqin normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida yoshlarning siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ongi o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayoni jadal rivojlanishi, yosh avlodning ilm-fan, sportda erishayotgan yutuqlari bu sohada islohotlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun zarur sharoitni yuzaga keltirmoqda. Zero,

bolalarimizning telefonini tekshirib turishimiz kerak, albatta. Ularning e'tiqodi va qarashlarini ezigulik nuri bilan himoya qila olishimiz zarur. Yuqoridagi misollarda keltirilgan kabi o'g'il-qizlar orasida kitob o'qiydigan, mutolaa qiladiganlar kam. Chunki mahallada, ko'cha-ko'ya, jamoat joylarida, maktablarda, oliyog'da, uyda, xullas, hamma-hamma joyda telefon ovora bo'lib o'tirganlarni har qadamda uchratamiz. Yotganda ham, turganda ham telefon yonida. Bugun internet olamiga kirib ketgan yoshlar nimalar ko'rayotgani bilan barchamiz qiziqishimiz, ularni to'g'ri yo'lga yo'naltirishimiz kerak. Ertaga kech bo'ladi.

Media olamida nojoiz, xavf-xatarga to'liq, yovuzlik va fahsh targ'iboti urchigan tasvirlar, roliklar, milliy teleekran orqali esa efriga o'ta bachkana, tarbiyaviy ahamiyati yo'q seriallar uzatilmoqda. Bu holatga xalq ma'naviy yuksalishi uchun jiddiy xavf sifatida qarash lozim. Tomoshabinning qalb ko'zini ko'r qiladigan bunday media va ekran mahsulotlariga befarq qarab turishning o'zi ham millat kelajagiga xiyonat emasmi? Zero, milliy qadriyatlar va axloq tushunchasi ko'p narsadan ustun.

Fikrimizning isboti sifatida dunyo bo'yicha olingan statistikaga e'tiboringizni qaratamiz. Bugun Yer yuzidagi 5,17 milliard odam ijtimoiy tarmoqlardan foydalanadi. Bu jahon



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Media olamida nojoiz, xavf-xatarga to'liq, yovuzlik va fahsh targ'iboti urchigan tasvirlar, roliklar, milliy teleekran orqali esa efriga o'ta bachkana, tarbiyaviy ahamiyati yo'q seriallar uzatilmoqda. Bu holatga xalq ma'naviy yuksalishi uchun jiddiy xavf sifatida qarash lozim.

sog'lom, bilimli va madaniyatli yoshlarga mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beradi.

Biz farzandlarimiz ongu tafakkurida milliy g'urur bilan birga umumbashariy qadriyatlarga hurmat hissini kamol toptirish maqsadida ularni zamonaviy bilim va dunyoqarash, daromadli kasb egalari etib tarbiyalash, ilm-fan, axborot texnologiyalari, ma'naviyat, san'at va adabiyot, sportga oshno etish uchun bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etmoqdamiz.

Bugun internet dunyosida ikki qutb bor. Biri — ezigulik. U inson kamoloti uchun xizmat qilib, og'irini yengillashtiradi. Ikkinchisi esa unga qarama-qarshi, ya'ni har qanday ma'naviy tarbiyani majaqlab, yo'qotishga shay turgan qutb. Odamlor mana shu ikki qutb orasida turibdi.

Ko'pchilik, ayniqsa, yoshlar o'zi bilib-bilmay adashib, turli yo'larga kirib qolmoqda. Bunga asosiy sabab ham internet tarmoqlaridagi bo'lar-bo'lmas, oldi-qochdi ma'lumotlardir. Biz

mamlakatlari aholisining 62,6 foizini tashkil qiladi. Ushbu ko'rsatkich har yili 3,4 foiz oshib bormoqda.

Kitob o'qish, mutolaa borasida esa ahvoldir. Bugungi avlod gazeta o'qish zavqini tushunmaydi. Yaqinda ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilari bilan uchrashib, suhbatlashishga to'g'ri keldi. Biz ko'proq kitob mutolaa, gazeta o'qish borasida ularning fikrini eshitdik. O'quvchilar orasida kitob o'qiydiganlar ko'pligini ko'rib ko'nglimiz yayradi. Ammo gazetaga navbat kelganida birortasi yaqin yarim yilda gazeta o'qimagan ma'lum bo'ldi. Faqat bir qiz maqolasi chop etilgani bois gazeta o'qigan.

Atrofimizga nazar solsak, kitobsevar davlatlar talaygina. Bizning ulardan nimamiz kam? Biz ham kitob o'qish yomonmi? Bilimli bo'lish uchun ham kitob o'qishimiz kerak.

Rivojlanish sari qadam bosar ekanimiz, ko'proq kitob o'qish, ilm o'rganish, eng asosiysi, davlatimiz tomonidan yoshlar uchun berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanish lozim.

“Yoshlik” OLTIN FONDNING sevimli nashriga aylanadi

Mamlakatimizdagi izchil islohotlar, yoshlar siyosati borasidagi yangicha yondashuvlar bugun o'z mevasini bermoqda. Davlatimiz rahbarining yoshlarga mehrini, ularga ko'rsatayotgan rag'batini yurtdoshlarimiz har kuni ko'rib, bilib turibdi.



Nurilla CHORIYEV, “Yoshlik” jurnali bosh muharriri

Shu yil 14-fevral kuni navqiron yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvda bu mehr, bu rag'bat yana bir bor ko'rindi. Prezidentimiz muloqotni “Buyuk shoirimiz Erkin Vohidov aytganidek, yoshlik — bu qalbnig oltin sozi. Bunga qo'shimcha qilib,

yoshlar — xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi, desak to'g'ri bo'ladi”, deya boshlagani qalbimizni to'lg'inlantirib yubordi, dilimizni faxr-iftixoraga to'ldirdi.

Davlatimiz yetakchisi yoshlar bilan muloqotida kechiktirib bo'lmaydigan bir qancha dolzarb masalalarga batafsil to'xtalib, yechimlarini ko'rsatib berdi. Jumladan, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda badiiy adabiyotning o'ri juda katta ekanini aytib o'tdi. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri, ustozimiz Erkin Vohidov birinchi muharriri bo'lgan “Yoshlik” jurnali faoliyatini kuchaytirib, uni yana yoshlarimiz sevib o'qiydigan nashrga aylantirish muhimligini ta'kidladi.

“Yoshlik” jurnali xodimlari bu tabarruk dargohda xizmat qilayotganidan doim faxrlanib yuradi. O'zbek xalqining so'nggi qirq yillik tarixiga e'tibor qaratsak, jurnal millatning adabiy tafakkuriga, intellektiga, madaniyati va san'atiga sezilarli ta'sir ko'rsatganiga shohid bo'lamiz.

Jurnal o'z davrida ijtimoiy-adabiy zarurat tufayli maydonga kelgan. Mana shu zarurat tahririyat xodimlariga yillar davomida g'ayrat bag'ishlab keladi. Nashrga xalqimizning ardoqli farzandi, davlat va jamoat arbobi Sharof Rashidov “Yoshlik” jurnali adabiyotimiz gulshanida o'ziga xos nurafshon bir bog' bo'lib qolsin. Bu boqqa qadam qo'yg'yanlar undan




hamisha xushnud, ko'ngli munavvar bo'lib chiqsin. Unda amal olguchi nihollar chinor misol gurkirab o'ssin va chinordek umri boqiy bo'lsin”, deb oq yo'l tilagan.

Bu tilaklar adabiy hayotimizda o'zining isbotini topdi. Bugungacha jurnal o'zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini targ'ib qilish, adabiy va ijtimoiy hayotdagi dolzarb masalalarga jamoatchilik e'tiborini qaratish, yosh iste'dodlarni kashf etishni o'zining asosiy vazifasi deb bildi.

Jurnal tashkil etilgan yillarda adabiyotimizga kirib kelayotgan yosh iste'dodlarning badiiy yetuk asarlari ayni

“Ijodkorning obro'sini oshiradigan, nashrning nomini ko'taradigan yagona omil bu, albatta, yuksak saviyadagi asardir. U o'quvchilar qalbiga yo'l topsa, katta taassurot qoldirsas, shubhasiz,

shu nashrdan bosilib chiqdi. Jumladan, o'zbek adabiyotida alohida hodisa bo'lgan “Saodat sohili”, “Javob”, “Asqartog' tomonlarda”, “Dunyoning ishlari”, “Yolg'onchi farishtalar”, “Temir xotini”,



“Otamdan qolgan dalalar” kabi asarlar, ozodlik va hurriyat mavzularidagi she'riy turkumlar, jahon adabiyotidan o'zbek tiliga mahorat bilan o'g'irilgan “Abadiyat qonuni”, “Oshkora qotillik”, “Asrga tatigulik kun”, “Ityurak” singari durdona asarlar ayni shu jurnaldan nashr etildi.

“Yoshlik”ni elga manzur etish yo'lida yuzlab iste'dodli adiblar mehnat qildi. Ayniqsa, xalqimizning istiqbol orzusi, o'zbek tilining mavqei, qatag'on yillarida qurbon bo'lgan ziyolilarimiz boshiga tushgan og'ir kunlar, xorijda yashayotgan vatandoshlarimiz haqidagi ijtimoiy-publisistik maqolalar yosh ijodkorlar tomonidan yozilganida yanada ravshan ko'rindi.

Keyingi yillarda Anvar Obidjonning “Mo'tivovimisan, Mittivoy” qissasi, Isajon Sultonning “Genetik” romani, Iqbol Mirzoning “Zarb” qissasi, Luqmon Bo'rixonning “Imom Moturidiy” romani, Shodiqul Hamroning “Qaunos qanotidagi umr”, Murtazo Qarshiboyevning “Qrim qissasi”, Orziqul Ergashevning “Tursunboyning bolaligi”, Shuhrat Matkarimning “Maqar”, Erpo'lat Baxtning “Suronlarda o'tgan bolalik”, Rustam Jabborovning “Shahzodaning iqrori” kabi ajoyib asarlari chop etildi.




Ijodkorning obro'sini oshiradigan, nashrning nomini ko'taradigan yagona omil bu, albatta, yuksak saviyadagi asardir. U o'quvchilar qalbiga yo'l topsa, katta taassurot qoldirsas, shubhasiz,

muallif ham, asarni chop etgan nashr ham tilga tushadi.

Biroq yoshlar uchun eng zarur bo'lgan jurnal keyingi yillarda juda kam adadda chiqdi. Bu tahririyat xodimlarini chuqur o'ziga oldirar, shunday ajoyib asarlar yoshlarimizga yetib bormayotgani qalbn o'rtar edi.

Muloqotda Prezidentimizning yoshlar hayoti bilan bog'liq dolzarb masalalar qatorida “Yoshlik” jurnali faoliyatini kuchaytirish borasidagi fikrlari nainki ijodkor yoshlarni, balki barcha ziyolilarning qalbini to'lg'inlantirdi. Zotan, davlatimiz rahbari azmu shijoatga to'la, navqiron yoshlar timsolida yangi O'zbekistonning buguni va ertangi bunyodkorlarini ko'rayotganini “Kelgusida Uchinchi Renessans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar



qayerdan paydo bo'ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi?

Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g'oyalarni sizlar — bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar”, deya ta'kidlagani ham bejiz emas.

Biz “Yoshlik” jurnali xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning sevimli zamonaviy nashriga aylantirish yo'lida iste'dodli yoshlar bilan birga bor kuch-g'ayratimizni safarbar etishga tayyormiz.

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-146.
37560 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Og'oz o'q bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“SHARQ” nashriyot-mabaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Musahhih: Nasiba Abdullayeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy